



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR HORIIYIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR HORIIYIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafojevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH	279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL.....	288
H.S. Bobojonov	
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSİYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI.....	294
Mamanazarov A.A.	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SALOHİYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQRISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich	
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	308
Axmetova Salima Seytovna	



HUDUD IQTISODIYOTIGA “YASHIL INVESTITSİYALAR”NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI.....	313
To'xtayev Maqsud Mansurovich	
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	321
Suyunov R.G'.	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li	
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH.....	334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich	
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	340
Siroj Zarina Rustambekovna	
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli	
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI	354
G'iyosov Ilxom Karimovich	
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL.....	361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu	
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	369
Turayeva Gulizahro	
INNOVATION EKOTIZIMDA FAN-TA'LIM-ISHLAB CHIQUARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI	374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI.....	378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH.....	386
Kaxorov Ulug'bek	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIVAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR)	389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich	
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATION RIVOJLANTIRISHNI IMITATION MODELLASHTIRISH.....	393
Raximov Azizbek Zokirovich	
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI.....	400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	404
Kodirova Xurshida Ismoilovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	409
Yusupov Ulug'bek Shukurullayevich	
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li	



KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH.....	416
Xamidova Soro	
Toshpulatova Laylo	
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH.....	423
Mariya Bekimbetova	
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi	
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	431
Arifbayev Bobir Dilshodovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSİYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI	439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI	443
Safarova Yulduz Abbos qizi	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIVAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH	448
Xusanov Shuxrat Burxonovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	454
Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи	
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES	461
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi	
HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV	467
Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li	
QURILISH SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI.....	473
Karimov Inomjon Ortikbayevich	
TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR.....	480
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
МЕХАНИЗМ ДЕЙСТВИЯ МЕСТНЫХ НАЛОГОВ И СБОРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	484
Файзиев Фаррух Абдуллахожаевич	
IQTISODIY ADOLATNI TA'MINLASHNING SOLIQ-BUDJET MEXANIZMLARI: NAZARIY YONDASHUVLAR, MEZONLAR VA BAHOLASH USULLARI.....	491
Alimov Nasimjon Hoshimovich	
ИНТЕГРАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ПРОВАЙДЕРОВ.....	499
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
ANALYSIS OF AGRICULTURAL EXPORT DEVELOPMENT TRENDS AND EXPORT GEOGRAPHY IN UZBEKISTAN	504
Qobilova Malika Uktamovna	
Usanova Feruza Zafar kizi	
Muratov Shukrullo Abduraimovich	



O'ZBEKISTON TURIZM TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLARNI TIZIMLI TAHLIL QILISH VA ULARNI BARTARAF ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI	508
Khusniddin Egamnazarov	
IKKI YOQLAMA SOLIQQA TORTISHNING OLDINI OLIHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'LLASH AMALIYOTI.....	516
Sarsengalieva Albina Askar qizi	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT PORTFELINING TARKIBIY TAHLILI VA UNI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	524
Abduganiyev Shoxruxbek Shavkatbek o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTNI SANOATLASHUVINING HAJMIY VA SIFAT O'LG'AMHLARI O'RTASIDAGI NOMUTANOSIBLIK TAHLILI.....	533
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ICHKI TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING TAMOYILLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	540
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA DRON TEXNOLOGIYALARINING MEHNAT VA ENERGIYA RESURLARINI TEJASHGA TA'SIRINI INTEGRAL BAHOLASH METODIKASI	546
Maxmudov Saidalo Ma'ruf o'g'li	
BYUDJET TASHKILOTLARI AUDITIDA TANLAMA NATIJALARINI BAHOLASH, BUZILISHLARNI EKSTRAPOLYASIYA QILISH VA ULARNI «MASOFAVIY AUDIT» TIZIMI BILAN INTEGRATSIYALASH.....	553
Muqumov Jasur Bosimovich	
BARQAROR RIVOJLANISH JARAYONIDA BIOIQTISODIYOTNING ROLI VA AHAMIYATI	560
Pulaton Baxtiyor Alimovich	
Xakimov Bunyod Bahodir o'g'li	
ISH BILAN BANDLIKNING IJTIMOIIY-IQTISODIY MOHIYATI VA UNING TURLARI.....	565
Zokirjonova Feruza	
KORXONADA MOLIYAVIY HISOB AXBOROTLARINING MOLIYAVIY HISOBOTINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	572
Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna	
KICHIK BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	578
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
BIOIQTISODIYOTDA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH: GERMANIYA VA YAPONIYA TAJRIBASI TAHLILI	585
Rahmatova Shahzoda Aminjonovna	
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES	590
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi	
YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURLARINI BOSHQARISHDA IDORALARARO MUVOFIQLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	596
Sardor A'zamovich Jo'rayev	



YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURLARINI BOSHQARISHDA IDORALARARO MUVOFIQLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Sardor A'zamovich Jo'rayev

Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini
o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar bandligini ta'minlash dasturlarini boshqarishda idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari meta-tahlil usuli asosida o'rganilgan. Tadqiqot doirasida 2010–2026-yillarda e'lon qilingan 14 ta ilmiy va normativ-huquqiy manba tizimli tahlil qilinib, muvofiqlashtirish mexanizmlari to'rt guruhga tasniflangan. Tahlil natijalari asosida yagona raqamli platformani rivojlantirish, muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar vakolatlarini kengaytirish, natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirishni joriy etish hamda shartnomaviy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar bandligi, davlat dasturi, idoralararo muvofiqlashtirish, boshqaruv mexanizmi, meta-tahlil, raqamli monitoring, KPI, "Yoshlar balansi".

Аннотация. В данной статье на основе метода метаанализа исследованы вопросы совершенствования механизмов межведомственной координации при управлении программами обеспечения занятости молодежи. В рамках исследования проведен системный анализ 14 научных и нормативно-правовых источников, опубликованных в 2010–2026 годах, на основе которого механизмы координации были классифицированы на четыре группы. По результатам анализа разработаны научно-практические предложения по развитию единой цифровой платформы, расширению полномочий координирующих структур, внедрению финансирования, ориентированного на результат, а также развитию договорных механизмов сотрудничества.

Ключевые слова: занятость молодежи, государственная программа, межведомственная координация, механизм управления, метаанализ, цифровой мониторинг, KPI, «Баланс молодежи».

Abstract. This article examines the improvement of interagency coordination mechanisms in the management of youth employment programs using the meta-analysis method. The study systematically analyzed 14 scientific and legal sources published between 2010 and 2026 and classified coordination mechanisms into four groups. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed to enhance a unified digital platform, expand the authority of coordinating institutions, introduce results-based financing, and strengthen contractual cooperation mechanisms.

Keywords: youth employment, government program, interagency coordination, management mechanism, meta-analysis, digital monitoring, KPI, "Youth Balance".

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida yoshlar bandligini ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Mamlakatimizda 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar soni 18 milliondan ortiq bo'lib, aholining qariyb 55 foizini yoshlar tashkil etadi, har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yosh mutaxassis kirib kelmoqda [14]. Bunday ulkan demografik salohiyatni samarali va munosib mehnatga jalb etish nafaqat ijtimoiy adolat, balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining institutsional asosi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun bilan yaratilgan bo'lib [1], 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida



[2] hamda “Yangi O‘zbekiston yoshlari – 2030” strategiyasida [3] yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan. Shu bilan birga, amaliyot tahlili mavjud tizimning jiddiy kamchiligini ko‘rsatmoqda. **Xususan**, yoshlar bandligi bilan bog‘liq vazifalar bir vaqtning o‘zida bir qancha vazirlik, idora va tashkilot zimmasida bo‘lib, ular faoliyati o‘rtasida yetarli muvofiqlashtirish mavjud emas. Natijada ayrim dasturlar bir-birini takrorlaydi, ma’lumotlar bazalari parchalanib qoladi, mablag‘lardan foydalanish samaradorligi pasayadi [14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat boshqaruvi nazariyasida idoralararo muvofiqlashtirish davlat dasturlari samaradorligining hal qiluvchi omili sifatida e’tirof etiladi [6]. P. Druker ta’kidlaganidek, XXI asr boshqaruvining bosh vazifasi tashkilotlar faoliyatini yagona maqsad atrofida uyg‘unlashtirish va natijaga yo‘naltirishdan iborat [8]. Shu nuqtai nazardan, yoshlar bandligini ta’minlash dasturlarini boshqarishda idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi mavjud ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarini meta-tahlil qilish asosida idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy usul sifatida meta-tahlil (meta-analysis) tanlangan. Meta-tahlil muayyan muammo bo‘yicha ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalarini yagona metodik asosda umumlashtirish va ular asosida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beruvchi ikkilamchi tadqiqot usulidir [5]. Ushbu usul yoshlar bandligi dasturlarini boshqarish kabi ko‘p tarmoqli muammoni o‘rganishda turli manbalardagi qarashlarni tizimlashtirish uchun eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar qo‘llanildi: birinchidan, manba 2010–2026-yillar oralig‘ida e’lon qilingan bo‘lishi; ikkinchidan, u davlat dasturlarini boshqarish, mehnat bozori, yoshlar siyosati yoki idoralararo muvofiqlashtirish masalalariga bevosita daxldor bo‘lishi; uchinchidan, ilmiy yoki rasmiy maqomga ega bo‘lishi (qonun hujjati, darslik, monografiya, xalqaro tashkilot hisoboti, rasmiy statistika). Ushbu mezonlar asosida jami 14 ta manba tanlab olindi va kontent-tahlil usulida qayta ishlandi. Har bir manbada idoralararo muvofiqlashtirishga oid qanday mexanizm taklif etilgani yoki tavsiflangani kodlashtirildi hamda mexanizmlar to‘rt guruhga birlashtirildi: institutsional-tashkiliy, raqamli-axborot, moliyaviy-natijaviy va ijtimoiy sheriklik mexanizmlari (1-jadval).


1-jadval.

Meta-tahlil uchun tanlangan manbalarning tarkibi

T/r	Manba turi	Manbalar soni	Adabiyotlar ro‘yxatidagi raqami
1.	Normativ-huquqiy hujjatlar	3	[1], [2], [3]
2.	Darslik, monografiya va ilmiy asarlar	6	[4], [5], [6], [7], [8], [9]
3.	Xalqaro tashkilotlar hisobotlari va tavsiyalari	4	[10], [11], [12], [13]
4.	Rasmiy statistik ma’lumotlar	1	[14]
	Jami	14	

TAHLIL VA NATIJALAR

Meta-tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilgan 14 ta manbaning 12 tasida institutsional-tashkiliy mexanizmlar (muvofiqlashtiruvchi kengashlar, ishchi guruhlar, vakolatlar taqsimoti), 9 tasida raqamli-axborot mexanizmlari (yagona platformalar, real vaqt rejimidagi monitoring, ochiq ma’lumotlar), 8 tasida moliyaviy-natijaviy mexanizmlar (KPI, natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish) va 7 tasida ijtimoiy sheriklik hamda shartnomaviy hamkorlik mexanizmlari muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida ko‘rsatilgan (1-rasm).



1-rasm. Muvofiqlashtirish mexanizmlari guruhlarining tahlil qilingan manbalarda aks etish chastotasi (muallif tomonidan tuzilgan)

Institutsional-tashkiliy mexanizmlar. Tahlil qilingan manbalarning aksariyatida muvofiqlashtirishning birlamchi sharti sifatida aniq institutsional tuzilma zarurligi qayd etiladi. A.V. Pikulkin davlat boshqaruvi tizimida vertikal va gorizontal aloqalar mutanosibligini ta'minlash, vakolatlar taqsimotini aniq belgilash muvofiqlashtirishning asosiy sharti ekanini asoslagan [6]. Q.X. Abdurahmonov mehnat bozorini tartibga solishda davlat organlari, ish beruvchilar va ta'lim tizimi manfaatlarini uyg'unlashtiruvchi uch tomonlama yondashuvni ilgari suradi [4]. Normativ-huquqiy hujjatlarda ham ushbu yondashuv aks etgan: "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasida yoshlar bandligi bo'yicha vazifalarni idoralararo kesimda muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan [3].

Raqamli-axborot mexanizmlari. Manbalarning uchdan ikki qismida raqamli platformalar idoralararo muvofiqlashtirishning eng samarali zamonaviy vositasi sifatida baholanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mehnat bozorining o'zgaruvchan tabiati sharoitida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv davlat dasturlari samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [13]. O'zbekistonda joriy etilgan "Yoshlar daftari" tizimi orqali so'nggi yillarda 390 ming nafardan ortiq ishsiz yoshning bandligi ta'minlanib, bu maqsadga 2,37 trln so'mdan ortiq mablag' yo'naltirilgani [14] raqamli, manzilli yondashuvning amaliy samarasini ko'rsatadi. Biroq turli idoralar axborot tizimlarining o'zaro integratsiyalashmagani ushbu samarani cheklovchi asosiy omil bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy-natijaviy mexanizmlar. P. Druker asos solgan natijaga yo'naltirilgan boshqaruv konsepsiyasi [8] hamda strategik menejment nazariyasi [7] davlat dasturlarida har bir ijrochi uchun aniq natija ko'rsatkichlari (KPI) belgilash va moliyalashtirishni ana shu ko'rsatkichlarga bog'lash zarurligini asoslaydi. G. Bekkerning inson kapitali nazariyasi nuqtai nazaridan yoshlar bandligi dasturlariga yo'naltirilgan mablag'lar investitsiya sifatida qaralishi va ularning qaytimi o'lchanishi lozim [9]. Tahlil shuni ko'rsatadiki, mablag'larni dastur samaradorligiga qarab taqsimlash tizimi idoralarni umumiy natija atrofida birlashtiruvchi kuchli rag'bat vazifasini bajaradi.

Ijtimoiy sheriklik mexanizmlari. Xalqaro Mehnat Tashkiloti hisobotlarida yoshlar bandligi dasturlarining muvaffaqiyati davlat organlari, ish beruvchilar, ta'lim muassasalari va yoshlar tashkilotlari o'rtasidagi shartnomaviy hamkorlik darajasiga bevosita bog'liqligi qayd etilgan [10]. Ushbu yondashuvning eng yorqin namunasi Yevropa Ittifoqining "Yoshlar kafolati" (Youth Guarantee) dasturi bo'lib, unda har bir a'zo davlat 25 yoshgacha bo'lgan har bir yoshga to'rt oy ichida ish, ta'lim yoki amaliyot taklif etish majburiyatini oladi va bu majburiyat idoralararo kelishuvlar orqali ta'minlanadi [11] (2-jadval).



Modelning markazida yagona raqamli platforma turadi. U respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi, vazirlik va idoralar, Yoshlar ishlari agentligi, mahalliy hokimliklar, ta'lim muassasalari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi axborot almashinuvini real vaqt rejimida ta'minlaydi hamda har bir ishtirokchi faoliyatini KPI ko'rsatkichlari orqali baholash imkonini beradi.

O'tkazilgan meta-tahlil bir nechta muhim qonuniyatni yuzaga chiqardi. Birinchidan, manbalarda institutsional mexanizmlarning ustuvorligi (14 tadan 12 tasi) muvofiqlashtirish muammosini faqat texnologik vositalar bilan hal etib bo'lmagligini ko'rsatadi: raqamli platforma aniq vakolatlar taqsimoti va mas'uliyat tizimisiz kutilgan samarani bermaydi [6; 8]. Ikkinchidan, xalqaro tajriba tahlili muvaffaqiyatli modellarning barchasida majburiy xususiyatga ega kelishuvlar va o'lchanadigan majburiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi [11; 12]. Uchinchidan, milliy amaliyotdagi "Yoshlar daftari" va "yoshlar balansi" tizimlari [3; 14] manzilli yondashuvning samarali asosini yaratgan bo'lsa-da, ular turli idoralar axborot tizimlari bilan to'liq integratsiyalashmagani bois muvofiqlashtirish salohiyati to'liq ishga tushmagan.

Shuningdek, tahlil davomida ilmiy adabiyotlarda kam yoritilgan jihat ham aniqlandi: mahalla darajasidagi individual yondashuv bilan respublika darajasidagi strategik rejalashtirish o'rtasidagi bog'lovchi mexanizmlar yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu holat kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish hisoblanadi va dissertatsiya doirasida chuqurroq o'rganilishi maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Meta-tahlil natijalari asosida yoshlar bandligini ta'minlash dasturlarini boshqarishda idoralararo muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar shakllantirildi:

Barcha vazirlik, idora, hokimlik va ta'lim muassasalarining bandlikka oid ma'lumotlarini birlashtiruvchi yagona raqamli platformani rivojlantirish, unda real vaqt rejimidagi monitoring va hisobotlilik tizimini yo'lga qo'yish.

Idoralararo muvofiqlashtiruvchi tuzilmalar vakolatlarini kengaytirish, har bir mas'ul tashkilot uchun aniq natija ko'rsatkichlarini (KPI) belgilash va ularning ijrosini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan muntazam baholab borish.

Mablag'larni dastur samaradorligiga qarab taqsimlash, ya'ni natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tizimini joriy etish orqali idoralarni umumiy maqsad atrofida birlashtirish.

Ish beruvchilar, ta'lim muassasalari va davlat organlari o'rtasida shartnoma asosidagi hamkorlikni kengaytirish, xorijiy tajribadagi kafolatli taklif tamoyilini "yoshlar balansi" tizimiga bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Dasturlar samaradorligini mustaqil baholash amaliyotini joriy etish hamda yoshlarning fikr-mulohazalarini muntazam o'rganib borish orqali boshqaruv mexanizmlarining moslashuvchanligini oshirish.

Taklif etilgan model va chora-tadbirlar kompleks tarzda amalga oshirilganda yoshlar bandligi dasturlarining takrorlanishiga barham berish, ma'lumotlar bazalarining parchalanishini bartaraf etish va budget mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, har yili mehnat bozoriga kirib kelayotgan 600 mingdan ortiq yoshning barqaror bandligini ta'minlash borasidagi strategik maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" O'RQ-406-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-apreldagi "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PF-66-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-8155028>
4. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: Fan, 2010. – 512 b.
5. Yo'ldoshev N.Q., Rashidov J.X. Menejmentning tadqiqot usullari. Darslik. – T.: TDIU, 2020. – 320 b.
6. Пикутькин А.В. Система государственного управления: учебник для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 543 с.
7. Зуб А.Т. Стратегический менеджмент: учебник и практикум. – М.: Юрайт, 2024. – 375 с.
8. Drucker P.F. *Management Challenges for the 21st Century*. – New York: HarperBusiness, 1999. – 224 p.
9. Becker G.S. *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 390 p.



10. ILO. *Global Employment Trends for Youth 2024: Decent Work, Brighter Futures*. – Geneva: International Labour Office, 2024. – 168 p.
11. European Commission. *Council Recommendation on a Bridge to Jobs: Reinforcing the Youth Guarantee*. – Brussels: European Commission, 2020.
12. OECD. *Employment Outlook 2023: Artificial Intelligence and the Labour Market*. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 284 p.
13. World Bank. *World Development Report 2019: The Changing Nature of Work*. – Washington, DC: The World Bank, 2019. – 151 p.
14. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining rasmiy ma'lumotlari (2023–2026-yillar). URL: <https://gov.uz/oz/yoshlar>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>